

Xoliqova Umida Ne'matillo qizi

ADU lingvistika yo'nalishi

2- bosqich magistiri

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bolalar she'riyatida fonostilistik vositalarning o'rni va ahamiyati haqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *fonologiya, fonostilistika, fonetik vositalar, fonetik o'zgarishlar, konnotativ ma'no, lirik asarlar, she'r, she'r tuzilishi*

Keywords: *phonology, phonostylistics, phonetic means, phonetic changes, connotative meaning*

Badiiy asarlarda, odatda, tovushlar, ohang va urg'u hissiy ta'sirchanlikni oshirishda muhim uslubiy vosita hisoblanadi. Asosan lirik asarlarda ushbu fonostilistik vositalardan foydalaniladi. She'riy nutqda nutqni ohangdor qilishning xilma-xil shakl va usullari o'z tabiati va mohiyati bilan aks etadi. Lirik asarlarda nutqni ohang jihatdan ma'lum tartibga soluvchi vositalarni keng qo'llay olamiz. Shuning uchun she'r tuzilishi fonetik stilistikaning alohida sohasi ekanligi ahamiyatga egadir

Kitoblarni qiziqib mehr bilan o'qishligiga sabab uning qay darajada mahorat bilan yozilganligi, badiiy ta'siridadir deb o'ylayman. Boisi, kitobxon o'qiyotgan asar xoh u nasriy bo'lsin, xoh nazmiy undagi ta'sir kuchi o'quvchining ongiga shunday ta'sir qilishi kerakki, u o'qiyotgan har bir holat uning ko'z o'ngida kino tasmadek o'tib tursin. Shu bilan birga kitoblarning tili asosiy rol o'ynaydi. Har bir kitobxon o'z ona tilidagi kitoblarni ma'no mohiyatini to'laligicha tushinishi uchun tilshunos mutahassis bo'lishi shart emas, albatta. Ammo so'zlarni o'rnida qo'llab asar yozish yozuvchidan katta mahorat talab etadi.

Mamlakatimizda o'zbek tilini ilmiy asosda o'rganish borasida keng ko'lamlı tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Hozirgi kunda barcha fan sohalarida bo'lgani kabi tilshunoslikda ham olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarining barchasi inson va uning muloqoti nuqtayi nazaridan turib amalga oshirilmoqda.

Muloqotga bagishlangan bir qator tadqiqot ishlarida til hususiy- ijtimoiy, funksional-uslubiy, davriy, hududiy turlarga ajratilgan. Ayniqsa, ijtimoiy-uslubiy harakterga ega bo'lgan tadqiqotlarga e'tibor kuchaymoqda.

Zamonaviy tilshunoslikning bir yo'nalishi sifatida o'rganilayotgan fonostilistika matn (nutq) tarkibida uchraydigan ayrim fonetik hodisalarning (tovush tushishi, tovush almashishi, tovush ortishi, ohang, bo'g'in, pauza) qay holda kelishi va uni tinglovchiga ta'sirini o'rganadi.

Hozirgi kunda fonostilistikaga doir, ayniqsa, she'riy matnlarda fonostilistikaning o'rni qay darajada ekanligi to'g'risidagi tadqiqot ishlari yetarli darajada emas. Qilingan

ishlar fonetika, stilistika, ijtimoiy tilshunoslik pozitsiyalardan turib tadqiq etilgan. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki ,o‘zbek tilshunosligida stilistikasining alohida bo‘lim sifatida o‘rganish mutahassis bo‘lib shakllanayotgan talabalarning tahlil qilinayotgan og‘zaki va yozma matnlarni yanada yaxshiroq o‘rganishga yordam beradi. Shu bilan birga, tilshunoslikda fonostilistik vositalarni keng ko‘lamda o‘rganish savodxonlikni oshirishning muhim shartlaridan biridir.

Har bir sohaning tarixiy ildizi bo‘lgani kabi fonostilistikaga oid masalalar tarixi tillarning to‘g‘ri so‘zlashuv uslubi me‘yorlari haqidagi olimlar ta‘limotiga borib taqaladi. Qadimgi Yunon va qadimgi Rim chiroyli so‘zlash va notiqlik san‘ati, nutqning ifodali vositalari haqidagi fan boshqa fanlar orasida asosiy yutuqlarga erishdi. Chunki ular uqtirishning tushuntirishning asosiy vositlari deb qaraladi. Darhaqiqat, matnning ta‘sirchanligini oshirish maqsadida fonetik vositalardan keng foydalaniladi. Tovush bilan bog‘liq hodisalar , pauza, ohang singari vositalari keng qo‘llanadi. Ona tilini va uning mukammal o‘rganish har bir inson uchun muhim sanaldi. Sababi, ta‘limiy va tarbiyaviy muammolar yechimi shunga borib qadaldi.

Ushbu texnika rivojlangan davrda bolalarni adabiyot va san‘at sohalariga o‘z qiziqishlarini zamon bilan hamnafas holatda olib borishlari va yuqori cho‘qqilarni zabt etishlari uchun bir qancha ishlar olib borilmoqda. Jumladan, turli yoshdagi bolalar o‘rtasida o‘tkazilayotgan “Kitobxon bolajon” musobaqasini aytishimiz mumkin.

Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida birinchi imzolagan qonun hujjati – 2016-yil 14-sentabrdagi «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi Qonun ekanida, albatta, ramziy mazmun-mohiyat mujassam. Binobarin, aholisining yarmidan ko‘prog‘i yoshlardan iborat bo‘lgan mamlakatda yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish, yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol, intellektual salohiyatli, o‘z qat‘iy pozitsiyasiga ega, yurtda amalga oshirilayotgan islohotlarga befarq bo‘lmagan, yurtning ertangi munosib kelajagi uchun daxldorlikka tayyor, maqsadga intiluvchan, serg‘ayrat, vatanparvar, sadoqatli, komil shaxslar sifatida tarbiyalash O‘zbekistonni dunyoning eng rivojlangan davlatlari safidan o‘rin olishining muhim omili ekanini mamlakat rahbari va hukumat yaxshi anglaydi.

Mana shunday o‘ziga hos bo‘lgan siyosiy qo‘llab –quvvatlashga befarq bo‘lmagan holda bolalar adabiyotini rivojlantirish, ularni kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarini yanada kuchaytirish maqsadida keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Kelajak avlodni sog‘lom fikrli, o‘tkir mulohazali insonlar bo‘lib yetishishlarida har bir soha vakillari imkoniyati boricha harakatdadir. Shu qatorda adabiyotshunos hamda tilshunos olimlar ham o‘z tadqiqot ishlarini olib borishmoqda. Bolalar uchun adabiyotlar yaratishning mas‘uliyati bir qadar kuchliroqdir. Sababi, ”kattalar uchun yozilgan kitobdagi xatoni tuzatish mumkin lekin bolalar uchun yozilgan kitobda kelgan xatoni tuzatib bo‘lmaydi, bu xatodan bolani ogohlantirilsa, xato uning zehninga chuqurroq o‘rnashadi. Bolalar uchun kitob yozadigan kishi g‘oyat usta san‘atkor, katta tajribali pedagog tilning zarshunosi bo‘lmog‘i kerak“.

Fonetik vositalar matnni uslubiy ravon, hissiy va pishshiq bo'lishida katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, bolalar uchun yaratilayotgan har bir she'riy matn qulay bo'lishi bilan muhim va shunisi bilan farqlidir. Masalan, she'riy topishmoq yoki bolalar uchu yaratilgan she'rlarni olaylik. Ulardagi qisqa bo'g'inli so'zlar va bir turdagi tovushlarning qator kelishi ularni yodlash uchun qulayligini keltirib chiqaradi. Masalan, Ayiq asal yaladi,

Asalari taladi.

Ushbu she'rdagi a, l tovushlarining takrori hamda qisqa bo'g'inli so'zlarning ishtiroki bolajonlarga eslab qolishni osonlashtiradi hamda aytilishda qulay bo'ladi. Yoki

Tolmi, terak yo qayin Sen tort, men tort qilmaymiz,

O'tin bo'lar zum sayin Charchash nima bilmaymiz

Arra g'iz – g'iz, Arra g'iz – g'iz,

Arra g'iz- g'iz Arra g'iz- g'iz

Berilgan yuqoridagi misolda asosan tovushlar bilan birga so'zlarni takrori ham bolalardagi she'rga bo'lgan qiziqib o'qishni kuchaytiradi hamda tilida kamchiligi bor bolalarga mashq sifatida beriladi.

Men gilosman quloq sol,

Rangim yoqut totim bol,

Topsang qo'shalog'imni

Qulog' ingga taqib ol

Ushbu misolda m, n, ng sonor tovushlarning qator kelishi hamda o, l tovushlarining takroridan matndagi ohangdorlikni kuchaytirib bermoqda. Shuni ham aytib o'tish kerakki, she'rda 20 ta tovushdan 70 ta o'rinda foydalanilgan. bu tovushlarni ichida eng ko'p qatrnashgani unli tovushlardir. O – 10 marta, a – 6 marta, i – 7 marta. Bundan ko'rinib turibdiki, she'rdagi musiqiylik, ohangdorlik, joziba, emotsional-ekspressivlikni oshirish unli tovushlar zimmasiga tushmoqda bu bilan she'r yodlash uchun osonlashmoqda.

Yuqori sinf o'quvchilari uchun berilgan ushbu she'rda bosh harflarning ishtiroki topishmoq mazmunini topishda yordam beryapti

Mening oilam

Qadrdon xonadonda

E'zozliman hamma vaqt

Eplayman hamma ishni

Yumushlarim bo'lar taxt

Shirinim deb singlimga

Mehribon har dam oyim

Kechasi alla aytib

Uxlatib qo'yar doim

Baxtiyordir dadamlar
Azizdir menga akam
Hammamiz oilada
Ahildirmiz chinakam

Ukam ismi jismiga
Munosib, aslo tolmas,
O‘qishlari ham a’lo,
Hech ikki baho olmas

Aytgin,ey she’rxon, aqling past
Bo‘lmasa agar betob.
Oilada biz nechta
Va ismimizni ham top

(E‘ZOZA ALIMOVA)

She’rda atoqli ot sifatida bosh harflar bilan bergani va bu bilan o‘quvchining bilim darajasini sinashni, so‘zlardagi o‘zgarishni sezib topishi kerakligi maqsad qilingan. She’rda sifat va ot so‘z turkumidagi so‘zlarni o‘rnini almashtirib chalg‘itish bo‘lgan. Ana shu o‘rinlarda o‘quvchilardan bilimlariga tayangan holda hushyorlik bilan tahlil qilish kerak bo‘ladi. Masalan, muallif ismi sifat holatida kelgan. Akasining va dadasining ismini atoqli ot sifatida olishimiz mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, fonostilistik vositalar har qanday badiiy matnda emotsionallik, ekspressevlikni ta’minlashga xizmat qiladi. U xoh she’riy matn bo‘lsin, xoh nasriy birdek ahamiyatli. Ayniqsa, bolalar adabiyotida bu holat yanada bo‘rttirilgan holda ifodalanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

- 1.Бахтин М. М. Эстетика словесного творчества. – Искусство, 1979, - 320 с.
- 2.<https://strategy.uz>
- 3.Abdulla Qodiriy. Bolalar adabiyoti haqida. Asarlar. Besh jild. – Toshkent. G‘.G‘ulom.1989.- B.79-80.
- 4.X.S.Muhitdinova, Y.A.Avlakulova, D.A.Nuriddinova. Ta’lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablarning 7-sinfi uchun darslik “O‘qituvchi”.Toshkent-2017.